



**НАУЧНЫЙ
ИМПУЛЬС**

ЦЕНТР НАУЧНОЙ
ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС



Последние
новости

Последние
образование

Последние
исследование

И НОВЫЕ НАУКИ

Ne'matullayev I.I	
EKOLOGIK HUQUQBUZARLIK SOHASIDA MA'MURIY AMALIYOT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH Omonov Sunnatulla Abdulaziz o'g'li	105
ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА ПРОИЗВОДСТВА ТВЕРДОГО МЫЛА НА ОСНОВЕ ОТРАБОТАННОГО МАСЛА Султонова Ситора Фахриддиновна Каромова Ахура Мансуровна Бабаева Ригина Рафиковна	109
ARTIFICIAL FEEDING: BASIC RULES Vokhidova Feruza Ganievna Kozimova Maftuna Farkhodovna	113
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI Isroilova Sevinch Aqilbek qizi Artikova Nargiz Shuxratovna	116
UMUM TA'LIM MAKTABI YUQORI SINIF O'QUVCHILARIGA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA STATIK MASHQLARNI O'RGATISHNING PEDAGOGIK MEXANIZIMLARI Izatullayev Alisher Muhtorjon o'g'li	119
SPRINTERLAR MASHG'ULOTLARINI MAXSUS REJIMLAR ASOSIDA TASHKILLASHTIRISH USULLARI Azizov Sobitxon Valievich OripovAzizdjon	123
ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ СКОРОСТНО-СИЛОВОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СПРИНТЕРОВ Азизов Сабитхан Валиевич Габдуллина Аделя Зиннуровна	128
QURILISH MATERIALLARI VA BUYUMLARI FANINI MUAMMOLI TALIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH Ochilova Nurzoda Tursunovna	133
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI ISLOHOTLAR TAHLILI Shukurov Abbos G'ulomovich Jumayev Akmal G'ulom o'g'li	142
РУССКИЙ ЯЗЫК В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ Гафурова Дилрабо Хамидов Баходир	147
A DIDACTIC MECHANISM FOR DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE	152

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLIISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda
xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi talabalari*

Isroilova Sevinch Aqilbek qizi

e-mail: isroilovasevinch1028@gmail.com

*Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim
nazariyasi kafedrası o'qituvchisi*

Artikova Nargiz Shuxratovna

e-mail: nargizartikova1982@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tillarini o'qitishning ahamiyatli jihatlari va bu borada o'qituvchilarga qo'yiladigan talab va takliflar. Shuningdek, o'quvchilarni chet tillariga qiziqtirish va darsni yanada oson va qulay usullarda tushintirish haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, metod, amalda ko'rsatish, topishmoqlar, pantomima, multfilm, texnologiya.*

THE IMPORTANCE OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN PRIMARY EDUCATION AND INTERESTING APPROACHES TO GET EFFECTIVE RESULTS

Abstract: *In this article, the important aspects of teaching foreign languages to elementary school students and the requirements and proposals for teachers in this regard. It is also thought about making students interested in foreign languages and explaining the lesson in easier and more convenient ways.*

Key words: *innovation, method, doing it in practice, pantomime, cartoons, technology.*

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabati, o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2012- yil 10- dekabrda qabul qilingan «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab chet tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi. Bu o'zining yaxshi

natijalarini ko'rsata boshladi, ammo, turli joylarda turli malakadagi o'qituvchilar bolalarga turli o'qitish metodlari orqali dars o'tadilar. Vaholangki chekka hududlarda yetarlicha malakaga, o'qitish metodlariga to'liq ega bo'lmagan, texnologiyalardan foydalanishga imkoniyati bo'lmagan ustozlar ham topiladi. Bu esa chet tillarini mukammal o'rgatishga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan omillardan biri. Shuning uchun iloji boricha davlatning barcha hududidagi maktablarni bir xil ta'minlash, har qanday joyda bo'lmasin o'qituvchilardan malaka talablarini talab qilish, chekka hududlardagi ustozlarni malakali ko'p yillik ish faoliyatiga ega bo'lgan, o'z kasbida yutuqlarga erishgan ustozlarga biriktirish ya'ni ularni malakasi yetishmaydigan o'qituvchilarga mahot darslari o'tishini tashkillashtirish lozim. 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirip qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

- Ko'rish orqali eslab qolish. Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish. Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

- Qo'shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin

- TO raqobatdosh grammatika va so'z boyligini o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi. Bunda bolalar o'qituvchi bergan turli xil topshiriqlarni bajaradi. Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek:

" Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi".

- Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin. Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

- Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilim qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

• Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish; Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o'yinlar so'zimizga misol bo'la oladi.

• "Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

• "Pantomima" (pantomime) . Bunda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni aytadi va o'quvchi uni ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar esa so'zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo'ladi .

• Sezgi a'zolar orqali o'rganish (sabzavot, mevalar , oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, turli xil buyumlarni ushlab ko'rish, gullarni hidlab ko'rish). Ushbu yangi metodni o'rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak".

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi , ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin. Biz bunday qilsak, o'zimiz tarbiyalab o'qitayotgan yosh avlodga foydali va oson qilib ularning kelajagiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Bu har bir pedagogman degan inson uchun ham qarz, ham farzdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.

2. 2012- yil 10- dekabrda qabul qilingan «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

3. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020.

4.Internet meteriallari.



НАУЧНЫЙ
ИМПУЛЬС

ЦЕНТР НАУЧНОЙ
ПОДДЕРЖКИ

Международный современный научно-практический портал
"НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС" лицензия и регистрационный номер агентства
№ 9755-л свидетельство о регистрации СМИ №ЭЛ ФС 89-65557

СЕРТИФИКАТ О ПУБЛИКАЦИИ

V Международный журнал научных исследований
"Научный Импульс"

НАГРАЖДАЕТСЯ

**Artikova Nargiz
Shuxratovna**

Автор научной работы:

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI
O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA
OLISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI**

Директор МЦНС
"Научный импульс"
к.э.н. Гуляева Е.К.



31 Марта 2024 г.
Председатель оргкомитета
к.э.н. Гуляева Е.К.